

XALQARO BAHOLASH DASTURLARI NATIJALARI ASOSIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

Nagmetullaev A

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Pedagogik mahorat markazi Aniq va tabiiy fanlar
metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi*

PISA 2022 tadqiqoti natijalari yuzasidan tahlillar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi

PF-5712-son farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda

997-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2022-yil

6-apreldagi 07/1-1601-son topshirig'i ijrosi yuzasidan O'zbekistonda

PISA 2022-o'quvchilarni xalqaro baholash dasturining asosiy sinov jarayonlari
2022-yil 21-apreldan 7-mayga qadar o'tkazildi.

PISA 2022 tadqiqoting asosiy sinovida O'zbekistonning 14 ta hududidan tanlab
olingan 202 ta maktab direktorlari so'rovnomalarda va mazkur maktablarning
o'quvchilari matematik savodxonlik, o'qish savodxonligi, tabiiy-ilmiy savodxonlik
hamda kreativ fikrlash yo'nalishlarida baholash testlarida va so'rovnomalarda ishtirok
etdilar.

PISA 2022 tadqiqoti natijalarini tahlil qilish doirasida Iqtisodiy hamkorlik va
taraqqiyot tashkiloti (OECD) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi o'rtasida O'zbekistonning
ushbu tadqiqotida ishtirokini ta'minlash bo'yicha imzolangan shartnomaning 1-bandiga
muvofig 2023-yil

8-maydan 29-sentabr sanasiga qadar Fransiyaning Parij shahrida "Yetakchi
tahlilchi" (Lead Analyst) dasturi o'tkazildi. Dastur doirasida Iqtisodiy hamkorlik va
taraqqiyot tashkiloti (OECD) va PISA Milliy jamoasi (National team) hamkorlikda
faoliyat olib borildi hamda O'zbekistonning PISA 2022 tadqiqoti natijalariga
bag'ishlangan Milliy hisobot (National Report) tayyorlash jarayonlari amalga oshirildi.

Milliy hisobotni tayyorlashda xalqaro ma'lumotlar bazasidan (International
Database) foydalanildi. Shuningdek tadqiqotda ishtirok etgan mamlakatlar bilan
solishtirma tahlillar olib borildi. O'zbekistonning PISA 2022 tadqiqotdagi natijalarini
o'zaro tahlil qilish maqsadida ishtirokchi mamlakatlar qatoridan Birlashgan Arab
Amirliklari, Gruziya, Marokash, Moldova Respublikasi, Mongoliya, Ozarbayjon (Boku),
Qozog'iston Respublikasi, Turkiya, Shimoliy Makedoniya, Vyetnam davlatlari
benchmarkinglar sifatida tanlab olindi hamda Milliy hisobotda solishtirma tahlillar
amalga oshirildi.

Ma'lumot uchun xalqaro va milliy hisobotdan o'rin olgan dastlabki tahlillar
natijalariga ko'ra, O'zbekistondagi o'quvchilarning matematik savodxonlik yo'nalishi
bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi 364 ball (72 o'rin), o'qish savodxonligi yo'nalishida 336
ball (80-o'rin), tabiiy-ilmiy savodxonlik yo'nalishi bo'yicha esa 355 ballni (80-o'rin)
tashkil etadi. Bu natijalar o'z navbatida OECD o'rtacha ko'rsatkichlaridan matematika

yo'nalishida 108 ball, tabiiy-ilmiy savodxonlik yo'nalishida 130 ball, o'qish savodxonligi yo'nalishi bo'yicha esa OECD o'rtacha ko'rsatkichidan 140 ballga farqli hisoblanadi.

Shuningdek, tahlillarda Ta'limning barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG, 4.1-maqсад)ga nisbatan monitoringi uchun o'lchanadigan umumta'lim maktabini tamomlashda o'qish va matematika yo'nalishlarida o'quvchilardan kutilayotgan savodxonlikning minimal darajasi, maktablar joylashgan hududlar (masalan, qishloq va shahar), o'quvchilarning jinsi va ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy holati indeksi (ESCS), ularning maktabgacha ta'lim tashkilotlariga borganlik holati, o'quvchilarning ta'lim olishlari uchun yaratilgan sharoitlar yuzasidan amalga oshirildi.

Ta'limning barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG, 4.1-maqсад)ga nisbatan monitoringi uchun o'lchanadigan o'rta maktabni tamomlashda kutilayotgan o'qish va matematika bo'yicha malakalarning minimal darajasi sifatida 2-daraja qaraladi, shunga muvofiq:

- O'zbekistondagi o'quvchilarning 19% ga yaqini matematika bo'yicha 2 yoki undan yuqori darajaga erishgan (OECD o'rtachasi: 69%);
- O'quvchilarning 14% ga yaqini o'qish bo'yicha 2 yoki undan yuqori darajaga erishgan (OECD o'rtachasi: 74%)
- O'quvchilarning qariyb 19% tabiiy fanlar bo'yicha 2 yoki undan yuqori darajaga erishgan (OECD o'rtacha: 76%).

Iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy holatning PISA indeksi (ESCS) bo'yicha O'zbekistonda o'quvchilarning 25 foizi (eng katta ulush) ijtimoiy-iqtisodiy miqyosda 4-xalqaro kvintilda bo'lgan, ya'ni ular 2022-yilda PISA tadqiqotida ishtirok etgan eng kam ta'minlanganlar qatorida ham, eng badavlat o'quvchilar qatorida ham emas. Ularning matematika bo'yicha o'rtacha bali 368 ballni tashkil etdi. Shuningdek, O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori bo'lgan o'quvchilar (ijtimoiy-iqtisodiy holat bo'yicha yuqori 25 foiz) matematika fanidan 22 ballga ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan quyi o'quvchilardan (quyi 25 foiz) yaxshiroq natija ko'rsatdilar.

Matematika, o'qish va tabiiy fanlar bo'yicha o'g'il bolalar va qizlarning natijalari:

PISA 2022 tadqiqotida o'g'il bolalar matematika bo'yicha qizlardan

6 ballga o'zib ketgan bo'lsa, o'qish bo'yicha qizlar o'g'il bolalardan 22 ballga yaxshiroq natija ko'rsatdilar. Ma'lumot uchun dunyo miqyosida matematika bo'yicha 40 ta davlat/iqtisodiyotda o'g'il bolalar qizlardan, yana 17 ta davlat/iqtisodiyotda qizlar o'g'il bolalardan o'zib ketgan, qolgan 24 tasida esa sezilarli farq aniqlanmagan.

O'zbekistonda o'quvchilarning 67 foizi maktabgacha ta'lim muassasalarida bir yil yoki undan ko'proq vaqt davomida qatnashganliklarini bildirgan (OECD o'rtacha: 94%).

Bir sinfda takror o'qish

O'zbekistonda o'quvchilarning qariyb 6 foizi kamida bir marta bir sinfda takror o'qiganliklarini bildirgan (OECD o'rtacha: 9%). Qishloq maktablari o'quvchilarining qariyb 8% bir sinfda takror o'qishi haqida ma'lum qilgan bo'lsa, shahar maktablari o'quvchilarining 6% kamida bir marta boshlang'ich, tayanch o'rta yoki o'rta maktablarda qayta o'qiganliklarini ma'lum qilganlar. O'zbekistondagi o'g'il bolalarning qariyb 9% bir sinfda kamida bir marta takror o'qigani haqida ma'lumot bergan bo'lsa,

qizlarning nisbatan kamroq ulushi (5%) bir sinfda takror o'qiganliklarini ma'lum qilganlar.

O'zbekistonda maktab hayoti — PISA tadqiqoti natijalari asosida

PISA 2022 tadqiqotida ishtirok etgan 15 yoshli o'zbekistonlik o'quvchilarning aksariyati 9-sinfda (83%), eng kam ulushi esa 7 va 11-sinflarda (0,1%) o'qiydi. 10-sinf o'quvchilarining ulushi 12% ni tashkil etadi, bu 8-sinfdagiga nisbatan ko'pdir (3%). Tadqiqotda ishtirok etgan kasb-hunar maktablarida ta'lim oluvchi 15 yoshli o'quvchilarning ulushi ham sezilarli darajada (2%). (Ma'lumot uchun OECD mamlakatlarida o'rtacha ko'rsatkich: 10-sinflar 55%, 9-sinflar 33%)

O'quvchilarning maktabga daxldorlik hissi va hayotdan qoniqishi bo'yicha olib borilgan tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi o'quvchilarning 86 foizi maktabda oson do'st orttirishini (OECD o'rtachasi: 76%) va 71 foizi o'zini maktabga tegishli deb his qilishini (OECD o'rtachasi: 75%) ma'lum qildilar. Shu bilan birga, 18% o'quvchilar maktabda o'zini yolg'iz his qilishini va 18% maktabdagi narsalardan chetda qolganligini aytdi (OECD o'rtachasi: 16% va 17%).

OECD ma'lumotlariga ko'ra so'nggi yillarda ko'plab mamlakatlar va iqtisodiyotlarda o'quvchilarning hayotdan qoniqish darajasi pasaygan. 2022-yilda O'zbekistondagi o'quvchilarning 10 foizi o'z hayotlaridan qoniqish hosil qilmasligini ma'lum qilgan: ular hayotdan qoniqish darajasini 0 dan 10 gacha bo'lgan shkala bo'yicha 0 dan 4 gacha baholagan.

O'zbekistonda 15% o'quvchilar maktabga ketayotganda o'zlarini xavfsiz his qilmayotganini ma'lum qilgan (OECD o'rtacha: 8%); O'quvchilarning 14% maktabda o'z sinflarida o'zlarini xavfsiz his qilmasliklarini ma'lum qilishdi (OECD o'rtacha: 7%); O'quvchilarning 20 foizi maktabning boshqa joylarida (masalan, koridor, oshxona, hojatxona) o'zlarini xavfsiz his qilmasliklarini ma'lum qilishdi (OECD o'rtacha: 10%). Qizlarning 15% va o'g'il bolalarning 19% kamida oyiga bir necha marta zo'ravonlikka duch kelgani haqida ma'lum qildi (OECD o'rtacha: qizlarning 20% va o'g'il bolalarning 21%).

PISA 2022 tadqiqotida ishtirok etgan o'quvchilarning o'qituvchilari haqida ma'lumot

PISA tadqiqotida maktab direktorlaridan maktablardagi o'qituvchilarning malakasi to'g'risida so'raldi. O'zbekistonda maktab direktorlari bergan ma'lumotga ko'ra 90% o'quvchilar bakalavr darajasi (ISCED 6 daraja)ga, 4% o'quvchilar magistr darajasi (ISCED 7-daraja)ga ega o'qituvchilardan ta'lim oladi. Shuningdek, 15 yoshli bolalar o'qiydigan maktablarda ishlaydigan o'qituvchilarning qariyb 85% asosiy, 15% esa o'rindosh sifatida ish bilan ta'minlangan.

Ota-onalarning ta'limdagi ishtiroki

PISA tadqiqoti doirasida O'zbekistondagi maktab direktorlari bergan ma'lumotga ko'ra barcha oilalarning deyarli yarmi o'z tashabbusi bilan (va 63 foizi o'qituvchi tashabbusi bilan) o'z farzandining rivojlanishini o'qituvchi bilan muhokama qilgani haqida ma'lum qilgan.

COVID 19 sababli maktablar yopilgan davrda ta'lim jarayonlari

O'zbekistonda ishtirokchi o'quvchilarning deyarli uchdan bir qismi (35%) COVID-19 sababli maktab binosi uch oydan ortiq vaqt davomida yopilganini ma'lum qilgan. Masofaviy o'qitish jarayonida O'zbekistondagi o'quvchilarning 40% kamida haftasiga bir marta maktab topshiriqlarini tushunishda, 42% o'quvchilar esa maktab ishlarida yordam beradigan odamni topishda muammolarga duch kelishgan. Shuningdek, O'zbekistonda 31% o'quvchilar har kuni videomuloqot dasturi bo'yicha jonli virtual darslar orqali qo'llab-quvvatlanganini, jami o'quvchilarning atigi 38% har kuni maktabdan biror kim o'zlarini qanday his qilishlarini so'rashganligini ma'lum qildilar.

Hozirda PISA 2022 tadqiqoti natijalari chuqurroq tahlil qilinmoqda. Tahlillar natijalari asosida kelgusida amalga oshirilishi belgilangan vazifalar yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilishi hamda mazkur reja asosida ta'lim sifatini yanada takomillashtirish bo'yicha vazifalar amalga oshirilishi belgilangan.

O'zbekistonning xalqaro baholash dasturlaridagi ishtiroki hamda natijalari haqida muhim faktlar

O'zbekistonning xalqaro tadqiqotlardagi natijalari
PIRLS 2021

Jami ishtirokchilar soni: 57 ta

Jami ishtirokchi maktablar: 13 000 ta

Jami ishtirokchi o'quvchilar: 400 000 nafar

Jami ishtirokchi o'qituvchilar: 20 000 nafar

Jami ishtirokchi ota-onalar: 380 000 nafar

O'zbekistondagi ishtirokchi maktablar :180 ta

O'zbekistondagi ishtirokchi o'quvchilar :5846 nafar

O'zbekiston natijalari:

O'qish savodxonligi 437 ball (48-o'rin) (PIRLS o'rtachasi 500 ball)

Eng yuqori natijalar: Singapur (587), Irlandiya (577), Gong Kong (573), Rossiya Federatsiyasi (567) va Shimoliy Irlandiya (566).

Badiiy matnlar: 438 ball

Axborot matnlari: 434 ball

Benchmarklar bo'yicha:

Ilg'or benchmark (Advanced): 0% (PIRLS o'rtacha 7%)

Yuqori benchmark (High): 7% (PIRLS o'rtacha 36%)

O'rta benchmark (Intermediate): 34% (PIRLS o'rtacha 75%)

Quyi benchmark (Low): 70% (PIRLS o'rtacha 94%)

Ijtimoiy iqtisodiy holatni inobatga olgan holda natijalar:

Yuqori: 474 ball (6 %)

O'rta: 445 ball (55%)

Quyi: 421 ball (39%)

Jinslar kesimida o'rtacha ballar:

O'g'il bolalar: 425 ball (52%) (PIRLS o'rtacha 493 ball)

Qizlar: 449 ball (48%) (PIRLS o'rtacha 509 ball)

PISA 2022

Jami ishtirokchilar soni: 81 ta
Jami ishtirokchi o'quvchilar: 630 000 nafar
O'zbekistondagi ishtirokchi maktablar :202 ta
O'zbekistondagi ishtirokchi o'quvchilar :7293 nafar
O'zbekiston natijalari:
Matematik savodxonlik 364 ball (72 o'rin);
O'qish savodxonligi 336 ball (80-o'rin);
Tabiiy-ilmiy savodxonlik 355 ball (80-o'rin);
TIMSS 2023

IEA tomonidan representativlik tamoyili asosida barcha hududlarni qamrab oluvchi 166 ta maktablar tadqiqotda ishtirok etish uchun namuna sifatida tanlab berilgan maktablarda 2023-yil aprel-may oylarida sinov jarayonlari tashkil etildi.

Tadqiqotda respublikaning barcha hududlaridan tanlab olingan 166 ta maktablardan jami 8800 nafar o'quvchilar (shundan, 4450 nafar 4-sinf va 4350 nafar 8-sinf) test va so'rovnomada ishtiroki ta'minlandi.

Shuningdek, mazkur maktablarning 166 nafar direktorlari hamda 1035 nafar matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'qituvchilari so'rovnomada ishtirok etdi.

Tadqiqot natijalari Ta'limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (Amsterdam, Gollandiya) tomonidan tahlil qilinib, 2024-yil dekabr oyida e'lon qilinishi rejalashtirilgan.

Xalqaro darajada e'lon qilinishi belgilangan tadqiqot natijalari olinganidan so'ng, kelgusidagi vazifalar bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan.

PISA 2025

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) o'rtasida O'zbekistonning PISA 2025 tadqiqotida ishtiroki to'g'risida 2023-yil 1-dekabrda kelishuv shartnomasi imzolangan.

PISA 2025 tadqiqotining Tajriba-sinov jarayonlari tasdiqlangan rejaga muvofiq aprel-may oylarida respublikamizning barcha hududlaridan xalqaro talablar asosida tasodifiy tanlab olingan 83 ta maktablarda o'tkazildi hamda 4518 nafar o'quvchilarning tadqiqotdagi ishtiroki ta'minlandi. Tajriba-sinovda o'quvchilarning ishtirok etish ko'rsatkichi 97,39 % ni tashkil qildi.

PISA 2025 tadqiqotining tajriba-sinov ma'lumotlari Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), PISA 2025 tadqiqotining xalqaro pudratchi tashkiloti Avstraliya ta'lim tadqiqotlari Kengashi (ACER)ga taqdim etildi.

2024-yil iyun-iyul oylarida o'quvchilarning ochiq strukturalangan savollarga bergan javoblarini kodlashtirish (baholash) jarayonlari amalga oshirildi. Mazkur jarayonlar A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan xalqaro talablarga muvofiq tashkil etildi.

Bugungi kunda PISA 2025 tadqiqotining Asosiy sinov jarayonlariga tayyorgarlik ko'rilmoqda. Unda respublikamiz bo'ylab 200 dan ortiq maktablar va mazkur maktablarning 7000 dan ortiq o'quvchilari ishtirok etishi rejalashtirilgan.

PIRLS 2026

O'zbekistonning PIRLS 2026 tadqiqotidagi ishtirokini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda IEA (Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assosiatsiyasi) o'rtasida shartnoma imzolangan.

Ma'lumot uchun, PIRLS 2026 tadqiqotining Tajriba-sinov jarayonlari

2025-yil aprel-may oylarida, Asosiy sinov jarayonlari esa 2026-yil aprel-may oylarida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Ushbu tadqiqot ishtirokchi mamlakat/iqtisodiyotlari soni 62 tani tashkil etadi.